


## Jizzax viloyatining sanoat ishlab chiqarishi ( 2021- yil yanvar-may oylarida )


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021- yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 2537,9 mlrd.so'm sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 119,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi ( 92,0 %) ni tashkil etdi.



*B–Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C-Ishlab chiqaradigan sanoat D-Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, E-Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.*


## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI\* % da



Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmining pasayishining asosiy omili bo'lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 23,2 % ga, shuningdek, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 62,1 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning 14,0 % ga tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 8,8 % ga oshganligi kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir

## Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2021- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 33,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,3 % ini tashkil etdi.


### Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar-may oylarida, % da)



### Tumanlar miqyosida, tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, mln. so'mda

Tumanlar nomi	2020- yil yanvar-may	2021- yil yanvar-may	FHI, %
G'allaorol tumani	4091,7	5597,1	112,2
Forish tumani	2091,7	1752,2	68,7
Sharof Rashidov tumani	10054,9	5555,6	45,3
Zomin tumani	8375,9	6007,3	58,8
Jizzax shahri	6817,7	10059,3	121,0
Zafarobod tumani	3470,1	2958,7	69,9
Baxmal tumani	853,7	990,9	95,2

## Ishlab chiqaradigan sanoat



2021- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2333,9 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 92,0 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, (yanvar-may oylarida, % da)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,0 % ni (2020-yilning yanvar-may oylarida – 3,4 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 12,0 % (3,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 18,6 % (14,4 %) va quyi texnologiyalisi – 61,4 % (69,5 %) ni tashkil etdi.

Yuqori texnologiyali	O'rta-yuqori texnologiyali
Ulushi % da	Ulushi % da
<div style="border: 1px solid #ccc; padding: 5px; display: inline-block;">3,4</div> 2020- y.	<div style="border: 1px solid #ccc; padding: 5px; display: inline-block;">3,9</div> 2020- y.
<div style="border: 1px solid #ccc; padding: 5px; display: inline-block;">0,0</div> 2021- y.	<div style="border: 1px solid #ccc; padding: 5px; display: inline-block;">12,0</div> 2021- y.
O'rta-quyi texnologiyali	quyi texnologiyali
Ulushi % da	Ulushi % da
<div style="border: 1px solid #ccc; padding: 5px; display: inline-block;">14,4</div> 2020- y.	<div style="border: 1px solid #ccc; padding: 5px; display: inline-block;">69,5</div> 2020- y.
<div style="border: 1px solid #ccc; padding: 5px; display: inline-block;">18,6</div> 2021- y.	<div style="border: 1px solid #ccc; padding: 5px; display: inline-block;">61,4</div> 2021- y.


Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 12,3 % ( 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 110,8 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 2,1 % ( 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 85,6 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 41,4 % ( 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,7 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 15,1 % ( 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,0 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 4,3 % ( 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 142,0 %) ni tashkil etdi.



## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-may oylarida davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 17,2 ming tonna kalava ip ( 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 27,1 % ga), ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

### O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da





### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-may	2021- yil yanvar-may	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	28 432	26 327,4	-2 104,6
Paxta tolasi, t.	24 191,4	26 162,1	1 970,7
O'simlik yog'i (tozalangan), t.	3 906,0	2 242,2	-1 663,8
Paxta linti, t.	1 997,9	2 469,9	472,0
Kalava ip, t.	8 438,7	17 160,9	8 722,2

## Elektr, gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash yanvar-may oylarida

mlrd.  
so'm



FHI  
% da

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 135,3 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining ( 5,3 % ini) tashkil etdi.


2021- yilning yanvar-may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 157,5 % ga oshganligi kuzatildi.

## Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-may	2021- yil yanvar-may	Farqi +/-
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	93 247,3	98 749,2	5 501,9
Boshqa bug' va issiq suv (issiqlik energiyasi), ming gkal	5,8	12,1	6,3
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	28 366,8	36 547,6	8 180,8

## Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

yanvar-may oylarida



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 35,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,4 % ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

(yanvar-may oylarida, % da)




Sanoat mahsulotlari	2020- yil yanvar-may	2021- yil yanvar-may	Farqi +/-
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm,	10 291,1	27 358,6	14124,0
Chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	9 969,1	8 346,1	- 1 623

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlar 46,0 % ga oshganligi kuzatildi, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, utilizatsiya qilish bo'yicha xizmatlar 41,8 % ga, pasayishi kuzatildi.

**Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1 217,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-may oylariga mos davriga nisbatan 24,7 % ga oshgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 48,0 % ni tashkil etdi.

















Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 33,0 % ni, shuningdek, G'allaorol tumani 13,5 % ni, Zafarobod tumani 8,8 % ni hamda Paxtakor tumani 7,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, viloyatda iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida yuqori ko'rsatkich Zarbdor tumani ( 181,5 %), G'allaorol tumani ( 364,2 %) va Paxtakor ( 140,3 %) tumanlarida qayd etildi.



## Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati















2021- yilning yanvar-may oylarida

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	1217,4	100,0	124,7		68,8	5,6	93,3
<b>Jizzax viloyati</b>				<b>Zomin</b>			
	401,6	33,0	113,8		70,3	5,8	181,5
<b>Jizzax shahar</b>				<b>Zarbdor</b>			
	56,0	4,6	154,9		106,9	8,8	131,5
<b>Arnasoy</b>				<b>Zafarobod</b>			
	36,4	3,0	105,1		25,5	2,1	102,7
<b>Baxmal</b>				<b>Mirzacho'l</b>			
	164,2	13,5	364,2		90,4	7,4	140,3
<b>G'allaorol</b>				<b>Paxtakor</b>			
	58,8	4,8	82,6		37,8	3,1	72,4
<b>Sharof Rashidov</b>				<b>Forish</b>			
	75,6	6,2	97,6		25,1	2,1	106,6
<b>Do'stlik</b>				<b>Yangiobod</b>			

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 35,6 % ni, shuningdek, Zarbdor tumani 8,6 % ni, Do'stlik tumani 14,2 % ni, hamda Paxtakor tumani 8,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Jizzax shahar (168,9 %) hamda Zarbdor tumanida (196,4 %) qayd etildi.















## Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati (2021- yilning yanvar-may oylarida)

	Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	296,9	100,0	105,4		12,1	4,1	40,1
<b>Jizzax viloyati</b>				<b>Zomin</b>			
	105,7	35,6	168,9		25,7	8,6	196,4
<b>Jizzax shahar</b>				<b>Zarbdor</b>			
	9,1	3,1	83,3		10,6	3,6	97,8
<b>Arnasoy</b>				<b>Zafarobod</b>			
	18,3	6,2	102,7		6,0	2,0	62,5
<b>Baxmal</b>				<b>Mirzacho'l</b>			
	13,7	4,6	97,5		26,2	8,8	86,5
<b>G'allaorol</b>				<b>Paxtakor</b>			
	12,2	4,1	76,8		7,5	2,5	78,8
<b>Sharof Rashidov</b>				<b>Forish</b>			
	42,2	14,2	87,2		7,5	2,5	91,0
<b>Do'stlik</b>				<b>Yangiobod</b>			

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri kelib, 32,3 % ni, shuningdek, G'allaorol tumani 16,3 % ni, Zafarobod tumani 10,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich G'allaorol tumaniga to'g'ri kelib, 508,2 % hamda Paxtakor tumanida 187,9 % qayd etildi.















## Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati 2021- yilning yanvar-may oylarida

	<b>Mrd. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mrd. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	916,9	100,0	133,1		53,7	5,9	137,4
<b>Jizzax viloyati</b>				<b>Zomin</b>			
	<b>Mrd. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mrd. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	295,9	32,3	101,9		44,7	4,9	173,9
<b>Jizzax shahar</b>				<b>Zarbdor</b>			
	<b>Mrd. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mrd. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	46,9	5,1	185,9		96,4	10,5	136,6
<b>Arnasoy</b>				<b>Zafarobod</b>			
	<b>Mrd. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mrd. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	18,1	2,0	107,7		19,5	2,1	128,3
<b>Baxmal</b>				<b>Mirzacho'l</b>			
	<b>Mrd. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mrd. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	149,9	16,3	508,2		64,2	7,0	187,9
<b>G'allaorol</b>				<b>Paxtakor</b>			
	<b>Mrd. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mrd. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	46,6	5,1	84,3		30,2	3,3	70,9
<b>Sharof Rashidov</b>				<b>Forish</b>			
	<b>Mrd. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>		<b>Mrd. so'm</b>	<b>Ulushi % da</b>	<b>O'sishi % da</b>
	33,4	3,6	114,7		17,6	1,9	115,0
<b>Do'stlik</b>				<b>Yangiobod</b>			

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2021- yilning yanvar-may oylarida


Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 820,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 32,3 % ni tashkil etdi.

## Jizzax viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari 2021- yilning yanvar-may oylarida

	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	2 537,9	100,0	119,1		116,1	4,6	108,8
<b>Jizzax viloyati.</b>				<b>Zomin</b>			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	981,8	38,7	107,5		126,7	5,0	93,1
<b>Jizzax shahar</b>				<b>Zarbdor</b>			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	91,4	3,6	100,7		226,2	8,9	136,5
<b>Arnasoy</b>				<b>Zafarobod</b>			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	36,7	1,4	106,2		58,6	2,3	102,6
<b>Baxmal</b>				<b>Mirzacho'l</b>			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	176,0	6,9	110,8		158,5	6,2	98,7
<b>G'allaorol</b>				<b>Paxtakor</b>			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	141,6	5,6	106,8		85,2	3,4	100,5
<b>Sharof Rashidov</b>				<b>Forish</b>			
	Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da		Mlrd. so'm	Ulushi % da	O'sishi % da
	313,8	12,4	98,5		25,2	1,0	101,5
<b>Do'stlik</b>				<b>Yangiobod</b>			

## Jizzax viloyati shahar va tumanlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining oshganini, Zafarobod (2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 136,5 %), G'allaorol (110,8 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshganligi bilan izohlashimiz mumkin.




### Jizzax viloyati jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Jizzax shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 38,7 % ni) hamda Do'stlik (12,4 %), Gallaorol (6,9 %) va Zafarobod (8,9 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Baxmal (1,4 %) hamda Yangiobod (1,0 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.





Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jizzax shahri ( 5424,0 ming so'm), Do'stlik ( 4709,0 ming so'm), Zafarobod ( 4471,0 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 861,2 ming so'm bo'lgan bo'lsa, Jizzax shahrida 2218,6 ming so'mni, Zafarobod tumanida 2113,9 ming so'mni, Arnasoy tumanida 1201,3 ming so'mni tashkil etdi.


## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish 2021- yilning yanvar-aprel oylarida, ming. so'm

	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 1795,4	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 861,2		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 693,0	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 411,0
<b>Jizzax viloyati</b>			<b>Zomin</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 5424,0	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 2218,6		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 1434,0	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 795,6
<b>Jizzax shahar</b>			<b>Zarbdor</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 1962,0	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 1201,3		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 4471,0	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 2113,9
<b>Arnasoy</b>			<b>Zafarobod</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 230,0	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 228,0		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 1110,0	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 483,4
<b>Baxmal</b>			<b>Mirzacho'l</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 1004,0	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 936,3		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 2090,0	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 1191,7
<b>G'allaorol</b>			<b>Paxtakor</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 624,0	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 259,2		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 907,0	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 402,2
<b>Sharof Rashidov</b>			<b>Forish</b>		
	<b>Sanoat mahsulotlari</b> 4709,0	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 1134,8		<b>Sanoat mahsulotlari</b> 880,0	<b>Iste'mol mahsulotlari</b> 877,5
<b>Do'stlik</b>			<b>Yangiobod</b>		

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

2021- yilning yanvar-may oylarida, % da

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 1200,1 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 47,3 % ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Baxmal tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Mirzacho'l (100,0 %), Yangiobod (100,0 %) tumanlarida kuzatildi.

Viloyatimiz hududlari kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko'rsatdiki, Do'stlik ( 9,8 %) tumanlarida hamda Jizzax shahrida ( 41,0 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

## Jizzax viloyatida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2021- yil 1-iyun holatiga)

Bugungi kunda viloyatda 3656 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 135 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 31,0 %) Jizzax shahriga, Sharof Rashidov tumaniga 712 tasi (19,5 %), G'allaorol tumaniga 355 tasi (9,7 %), Zomin tumaniga 272 tasi (7,4 %), Forish tumaniga 166 tasi (4,5 %), Zarbdor tumaniga 169 tasi (4,6 %) to'g'ri kelmoqda.



2021- yil yanvar-may oylarida viloyatda 433 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 117 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi ulushi 27,0 %) Jizzax shahrida, 75 tasi (17,0 %) Sharof Rashidov tumanida, 52 tasi (12,0 %) G'allaorol tumanida tashkil etildi.



## JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Sanoat statistikasi bo'limi

Tel.: (72-221-51-13)